# KASBIY STANDART

## Kasb ta’limi ustasi
## (ishlab chiqarish, transport, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha)

| Reyestr raqami: | QR kod |
| --- | --- |
| | |

### I. Umumiy ma’lumotlar

1. Kasbiy standartning qo‘llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart Kasbiy ta’lim tashkiloti pedagoglari kasblari bo‘yicha kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, kasblar bo‘yicha ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, kasbiy ta’lim tashkilotlarida ta’limga oid faoliyat, shu jumladan kasb ta’limi ustasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish hamda ichki nazoratni amalga oshirish sohasida keng ko‘lamli vazifalarni hal qilishda qo‘llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo‘llaniladi:

androgogika – bu kattalar ta’limi haqidagi fan;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘ladigan o‘rganilgan va o‘zlashtirilgan ma’lumotlar;

davlat akkreditatsiyasi – davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta’lim muassasasi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

davlat ta’lim standartlari – davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari – ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko‘nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat turi;

LOYIHA

kasb kartasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qoʻyiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni oʻz ichiga olgan muayyan kasb toʻgʻrisidagi tizimlashtirilgan maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon boʻladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin boʻlgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qoʻllanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos boʻlib xizmat qiladi;

kasbiy standart – norasmiy va informal taʼlimni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, koʻnikma, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qoʻyiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning kasbiy faoliyat sohalari va turlari boʻyicha tizimlashtirilgan roʻyxati;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini maʼlum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qoʻllay olish;

koʻnikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mahorat – biror masala (mantiqiy, hissiy, ijodiy va amaliy tafakkurni qoʻllash)ni hal etish va faoliyatni amalga oshirish maqsadida bilimlarini qoʻllash va kompetentligini namoyish etish qobiliyati;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, koʻnikma va kompetensiyalar majmuasi boʻlib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka berish – rasmiy taʼlim va oʻz-oʻzini oʻqitish orqali olingan bilim va koʻnikmalarni baholash jarayoni. Ushbu baholash natijalariga koʻra sertifikat, diplom, yoki malakani tasdiqlovchi boshqa hujjat (malaka darajasi) beriladi;

mehnat faoliyati turi — kasbiy faoliyat sohasining ajralmas qismi boʻlib, muayyan mehnat vazifalari hamda ularni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan kompetensiyalarning yaxlit majmuasini ifoda etadi;

mehnat funksiyasi – ishchi yoki mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyat jarayonida bajariladigan, muayyan natijaga erishishga qaratilgan va kasbiy standart doirasida aniq tavsiflangan vazifalar majmuasi boʻlib, u mehnat jarayonining mustaqil qismini tashkil etadi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan oʻzaro aloqa jarayoni boʻlib, unga maʼlum vazifani bajarish natijasida erishiladi;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

LOYIHA

modul – oʻquv dasturining alohida boʻlagi;

nodavlat taʼlim tashkiloti – davlat taʼlim standartlari, davlat taʼlim talablari va oʻquv dasturlariga muvofiq taʼlim xizmatlari koʻrsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida taʼlim xizmatlari koʻrsatuvchi yuridik shaxs;

oʻquv metodik majmua – darslik, mashq daftari, oʻqituvchi uchun metodik qoʻllanma, darsliklarning multimediali ilovadan iborat majmua;

pedagog – (yunon tilidan – παιδαγωγός bola yetaklovchi) – pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va oʻqitish bilan shugʻullanuvchi, shu soha boʻyicha maxsus tayyorgarlikka ega boʻlgan shaxs;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar;

taʼlim – taʼlim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy koʻnikmalar berishga, shuningdek ularning umumtaʼlim va kasbiy bilim, malaka hamda koʻnikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

taʼlim kampusi – yagona hududda birlashtirilgan oʻquv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, taʼlim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini oʻz ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat boʻlgan, oʻquv jarayoni, maʼnaviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini taʼminlaydigan taʼlim-tarbiya muhiti;

taʼlim tashkilotlari attestatsiyasi – taʼlim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat taʼlim standartlari, davlat taʼlim talablari hamda oʻquv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash boʻyicha davlat nazoratining asosiy shakli;

taʼlim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – taʼlim oluvchilar, voyaga yetmagan taʼlim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlar:

Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 29-sentabr “Taʼlim toʻgʻrisida”gi OʻRQ-637-son qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevral “Pedagogning maqomi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-901-son qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabr “Kasbiy taʼlimda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro taʼlim

dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-son qarori, O‘zMSt 641:2025 (IFUT-2.1);

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

IFUT –iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

T/r-tartib raqami.

LOYIHA

## II. Kasbiy standartning pasporti

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | Kasbiy standartning nomi: | Kasb ta’limi ustasi (ishlab chiqarish, transport, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha) | |
| 2. | Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi: | Kasbiy ta’lim sohasida ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, tegishli toifadagi transport vositalarini xavfsiz boshqarishni o‘rgatish | |
| 3. | IFUT bo‘yicha seksiya, bo‘lim, guruh, sinf va kichik sinf: | Q seksiya: Ta‘lim<br>85 Ta’lim<br>85.3 O‘rta va o‘rta ta’limdan keyingi ta’lim<br>85.32 Professional o‘rta ta’lim<br>85.32.0 Professional o‘rta ta’lim | |
| 4. | Kasbiy standartning qisqacha mazmuni: | Ta’lim oluvchilarning bilimlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan bilim va kompetensiyalarni shakllantirish, ularning o‘quv natijalariga erishishini ta’minlash, pedagogik sharoitlarni yaratish, ta’limni chuqurlashtirish va ehtiyojlarini qondirish, ta’lim dasturlarini amalga oshirilishini ta’minlash | |
| 5. | Qamrab olingan kasblar ro‘yxati va malaka darajasi: | **Kasblar kodi va nomi:** | **TMR dagi malaka darajasi:** |
| | | 23202004 Ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalarida kasb ta’lim ustalari | 6 |
| | | 23202009 Transport xizmatlari sohasida kasb ta’lim ustalari | 6 |
| | | 23202008 Qishloq xo‘jaligi sohasida kasb ta’lim ustalari | 6 |
| | | 23202010 Xizmat ko‘rsatish sohasida kasb ta’lim ustalari | 6 |

LOYIHA

## III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

| Kasblar | | Mehnat funksiyalari | | Mehnat vazifalari | |
|---|---|---|---|---|---|
| T/r | Kodi va nomi | Kodi | Nomi | Kodi | Nomi |
| 1 | 23202004 Ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalarida kasb ta’lim ustalari | A1.6 | O‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish, ularning kasbiy faoliyatni amalga oshirishini ta’minlovchi, me’yoriy tartibda belgilangan ta’lim natijalariga erishishini ta’minlash | A1.01.6 | Ta’lim oluvchilarning kasbiy ta’lim va kasbga o‘qitish dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish |
| | | | | A1.02.6 | Kasbiy ta’lim va kasbga o‘qitish dasturlarining o‘zlashtirilishini monitoringini olib borish, pedagogik nazorat qilish va baholash |
| | | | | A1.03.6 | O‘quv-ishlab chiqarish jarayonini o‘quv-me’yoriy va metodik jihatdan ta’minlash |
| | | A2.6 | O‘quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, ta’limni chuqurlashtirish va kengaytirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratish | A2.01.6 | Guruh faoliyatini rejalashtirishda o‘quvchilar, ularning ota-onalari (qonuniy vakillari), ta’lim muassasasi xodimlari ishtirokini ta’minlash, shu jumladan, guruh talabalarini turli amaliyotlarga va kasbiy faoliyatga jalb etish |
| | | | | A2.02.6 | Guruhning o‘ziga xos boshqaruv organlarini tashkiliy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash |
| | | | | A2.03.6 | O‘quv hujjatlari asosida hisobotlar, ma’lumotnomalar va boshqa ma’lumot materiallarini belgilangan shaklda (jumladan qog‘oz va elektron ko‘rinishda) tuzish va so‘rov bo‘yicha vakolatli shaxslarga taqdim etish |

LOYIHA

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 2 | 23202009 Transport xizmatlari sohasida kasb ta’lim ustalari | B1.6 | Tegishli toifadagi transport vositalarini boshqarishni o‘rgatish | B1.01.6 | Tegishli toifadagi transport vositalarini boshqarish bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish |
| | | | | B1.02.6 | Tegishli toifadagi transport vositasi haydovchisi malakasini o‘zlashtirilishini pedagogik nazorat qilish va baholash |
| | | | | B1.03.6 | Tegishli toifalar bo‘yicha o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni rejalashtirish, olib borish, ta’lim oluvchilar tomonidan kasbiy ta’lim va kasbga o‘qitish dasturlarining o‘zlashtirish monitoringini yuritish |
| | | B2.6 | O‘quv-ishlab chiqarish ustaxonasida (poligonda, maydonchada, laboratoriyada, mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan boshqa joylarda) ta’lim-ishlab chiqarish muhitini shakllantirish, ularning jihozlanishini modernizatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish | B2.01.6 | Ustaxona, poligon yoki laboratoriyaning mavjud ta’lim-ishlab chiqarish muhitini tahlil qilish, zarur pedagogik va ishlab chiqarish sharoitlarini aniqlash, yetishmovchiliklarni belgilash |
| | | | | B2.02.6 | Jihozlar, asbob-uskunalar va materiallar ro‘yxatini ishlab chiqish va modernizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish, ta’lim va amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnika va pedagogik metodlardan foydalanish |
| | | | | B2.03.6 | Ishlab chiqilgan tadbirlar bo‘yicha hisobotlar, reja va texnik hujjatlarni tayyorlash, o‘quvchilar va ustaxonadagi xodimlar bilan samarali hamkorlikni ta’minlash, ularning xavfsiz va sifatli faoliyatini nazorat qilish |
| | | | Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya, yo‘l-qurilish va texnika | D1.01.6 | Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya, yo‘l-qurilish va texnika boshqarish bilan bog‘liq sanoatning boshqa sohalari texnikalarini boshqarish bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish |

LOYIHA

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3 | 23202008 Qishloq xoʻjaligi sohasida kasb taʼlim ustalari | D1.6 | boshqarish bilan bogʻliq sanoatning boshqa sohalari texnikalarini boshqarishni oʻrgatish | D1.02.6 | Qishloq xoʻjaligi, melioratsiya, yoʻl-qurilish va texnika boshqarish bilan bogʻliq sanoatning boshqa sohalari texnikalarini boshqarish malakasini oʻzlashtirilishini pedagogik nazorat qilish va baholash |
| | | | | D1.03.6 | Qishloq xoʻjaligi, melioratsiya, yoʻl-qurilish va texnika boshqarish bilan bogʻliq sanoatning boshqa sohalari texnikalarini boshqarish boʻyicha oʻquv va amaliy mashgʻulotlarni rejalashtirish, olib borish, taʼlim oluvchilar tomonidan kasbiy taʼlim va kasbga oʻqitish dasturlarining oʻzlashtirish monitoringini yuritish |
| | | D2.6 | Oʻrta maxsus kasbiy taʼlim dasturlari boʻyicha oʻquvchilarga taʼlim faoliyati va kasbiy-shaxsiy rivojlanishda ijtimoiy-pedagogik qoʻllab-quvvatlash | D2.01.6 | Oʻquvchilarning taʼlim jarayonidagi ehtiyojlari va rivojlanish darajasini aniqlash, ijtimoiy-pedagogik qoʻllab-quvvatlash tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish |
| | | | | D2.02.6 | Oʻquvchilar bilan individual va guruh boʻlib maslahatlar, treninglar, mashgʻulotlar oʻtkazish, ota-onalar va qonuniy vakillar bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, ularni oʻquvchilarning rivojlanishi jarayoniga jalb etish |
| | | | | D2.03.6 | Oʻquvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini kuzatish va baholash, zarurat boʻlganda pedagogik tavsiyalar berish, ijtimoiy-pedagogik qoʻllab-quvvatlash natijalari boʻyicha hisobotlar tayyorlash; |
| | | E1.6 | Turli darajadagi kasbiy taʼlim va kasbga oʻqitish dasturlarini amalga oshirishda oʻquv- | E1.01.6 | Taʼlim oluvchilarni turli darajadagi kasbiy taʼlim dasturlari boʻyicha oʻquv-ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish |

LOYIHA

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4 | 23202010 Xizmat koʻrsatish sohasida kasb taʼlim ustalari | | ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish | E1.02.6 | Taʼlim oluvchilarni ishlab chiqarish jarayonida malakani egallashini pedagogik nazorat qilish va baholash |
| | | | | E1.03.6 | Taʼlim oluvchilarning oʻquv-ishlab chiqarish jarayonini uslubiy jihatdan taʼminlash |
| | | E2.6 | Kasbiy taʼlimning asosiy dasturlari va asosiy kasbiy taʼlim dasturlari doirasidagi oʻquv fanlari, kurslar, dissiplinalar (modullar)ning ishchi dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ularning amaliyotga tayyorgarlikni taʼminlashi va kasbiy taʼlim dasturlari boʻyicha amaliyotni oʻzlashtirishni taʼminlash | E2.01.6 | Kasbiy taʼlim dasturlari va ularning tarkibiy qismlarini tahlil qilish va baholash,oʻquv fanlari, kurslar, disiplinlar (modullar) boʻyicha ishchi dasturlarni ishlab chiqish va ularni yangilash |
| | | | | E2.02.6 | Ishchi dasturlarda amaliyotga tayyorgarlikni taʼminlovchi elementlarni kiritish, oʻquvchilar va xodimlarning malakasini oshirishga qaratilgan amaliy mashgʻulotlarni rejalashtirish, amaliyot va kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish jarayonini kuzatish va baholash |
| | | | | E2.03.6 | Ishchi dasturlarni zamonaviy pedagogik va texnologik talablar asosida moslashtirish, ishchi dasturlar boʻyicha hisobotlar va tavsiyalar tayyorlash |

LOYIHA

## IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

<table>
<tr><td>Kasbning nomi:</td><td colspan="2">Ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalarida kasb ta’lim ustalari</td></tr>
<tr><td>Mashg‘ulot nomining kodi:</td><td colspan="2">23202</td></tr>
<tr><td>TMR bo‘yicha malaka darajasi:</td><td colspan="2">6</td></tr>
<tr><td>Malakani baholashga qo‘yilgan talablar:</td><td colspan="2">Tavsiya etiladi</td></tr>
<tr><td>Amaliy tajriba (Ish staji)ga qo‘yilgan talablar:</td><td colspan="2">Dars beradigan o‘quv, ishlab chiqarish amaliyotlariga mos oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar, o‘rta yoki boshlang‘ich kasbiy ta’lim darajasidagi ma’lumot, mos sohada ishlab chiqarishda 3 yilgacha ish staji</td></tr>
<tr><td>Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo‘yilgan talablar:</td><td colspan="2">ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi;<br>o‘quv mashg‘ulotlarini o‘quv dasturlari va davlat ta’lim standartlariga muvofiq sifatli o‘tkazishi;<br>o‘quv mashg‘ulotlari davomida ta’lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko‘rishi;<br>ta’lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;<br>voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;<br>o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o‘tishi;<br>ta’lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta’sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi talablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;<br>majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi shart.</td></tr>
<tr><td>Ta’lim darajasiga qo‘yilgan talablar:</td><td colspan="2">1) bakalavriat<br>2) o‘rta maxsus professional ta’lim va amaliy tajriba</td></tr>
<tr><td>Norasmiy va informal ta’lim bilan bog‘liqligi:</td><td colspan="2">-</td></tr>
<tr><td>Kasbiy standartlar reyestrida mavjudligi:</td><td colspan="2">-</td></tr>
<tr><td>Kasbning boshqa mumkin bo‘lgan nomlari:</td><td colspan="2">Kasb ta’limi ustasi</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:</td><td>TMR bo‘yicha malaka darajasi:</td><td>Kasbning nomi:</td></tr>
<tr><td>6</td><td>Arxitektura va qurilish sohasida kasb ta’lim ustalari</td></tr>
<tr><td>6</td><td>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta’lim ustalari</td></tr>
</table>

| | | |
|---|---|---|
| | 6 | Baliq xoʻjaligi sohasida kasb taʼlim ustalari |
| | 6 | Kasbiy taʼlim tashkilotlarida boshqa kasb taʼlim ustalari |
| | 6 | Muhandislik va muhandislik ishi sohasida kasb taʼlim ustalari |
| | 6 | Oʻrmon xoʻjaligi sohasida kasb taʼlim ustalari |
| | 6 | Qishloq xoʻjaligi sohasida kasb taʼlim ustalari |
| | 6 | Transport xizmatlari sohasida kasb taʼlim ustalari |
| | 6 | Xizmat koʻrsatish sohasida kasb taʼlim ustalari |
| **Mehnat funksiyalarining tavsifi** | | |
| **Kodi va nomi** | **Mehnat vazifalari** | |
| A1.6 - Oʻquvchilar tomonidan bilimlarni oʻzlashtirish, koʻnikma va kompetensiya larni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish, ularning kasbiy faoliyatni amalga oshirishini taʼminlovchi, meʼyoriy tartibda belgilangan taʼlim natijalariga erishishini taʼminlash | A1.01.6 - Taʼlim oluvchilarning kasbiy taʼlim va kasbga oʻqitish dasturlarini oʻzlashtirish boʻyicha oʻquv-ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish | **Oʻqitish natijalari** |
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Ishlab chiqarish texnologiyalari asosida amaliy darslarni tashkil etish |
| | | 2. Taʼlim oluvchilarga asbob-uskunalar bilan ishlashni, xavfsizlik qoidalarini va mehnat madaniyatini oʻrgatish |
| | | 3. Dars oldidan asbob-uskunalarni, materiallarni tekshirish va tayyorlash, ish qurollari va texnika vositalaridan foydalanishni tushuntirish |
| | | 4. Ishlab chiqarish buyurtmalari asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish |
| | | 5. Ish joyining gigiyena va xavfsizlik qoidalariga muvofiqligini nazorat qilish |
| | | 6. Taʼlim oluvchilarga texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish madaniyati boʻyicha yoʻriqnoma berish |
| | | 7. Oʻquv amaliyotlari mashgʻulotlarini oʻtish, ishlab chiqarish amaliyotlarini oʻtilishini tashkil qilish |
| | | **Koʻnikmalar:** |
| | | Fan(modul) mazmunini va oʻqitish metodikasini rejalashtirish |
| | | Namunaviy taʼlim dasturlari asosida ishchi oʻquv reja va oʻquv dasturlarni ishlab chiqish |
| | | Mashgʻulotlarda tashkiliy boshqaruv faoliyatini amalga oshirish |
| | | Oʻquv amaliyoti mashgʻulotlarini pedagogik etika va huquqiy normalarga muvofiq amalga oshirish |
| | | Texnologik jihozlarning sozligini tekshiruvdan oʻtkazish, olinadigan moddiy resurslarni, xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | | qismlar miqdor va sifat jihatdan tekshirish, o'quv ishlab chiqarish jihozlarni ta'mirlash uchun buyurtma tayyorlash va bajarilgan ishlarni sifatini nazorat qilish |
| | | Texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilgan holda ta'lim berishning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo'llash |
| | | Ta'lim oluvchilar bilan pedagogik jihatdan to'g'ri munosabatlarni o'rnatish, ta'lim oluvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish |
| | | Ta'lim oluvchilarni amaliyot mashg'ulotiga tayyorgarligini, bajarayotgan ishlarini nazorat qilish va baholash, kasbni egallashdagi yutuq va yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aniqlash, tahlil qilish, ularni kelib chiqish sabablarini o'rganish, ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish va moslash |
| | | Ta'lim oluvchilar ish jarayonida yo'l qo'ygan xatolarini aniqlab, tuzatish bo'yicha tavsiyalar berish, ish sifati, mehnat unumdorligi va materiallardan foydalanishni kuzatish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | O'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi (yoki boshqa mashg'ulot o'tkaziladigan joy)dagi ta'lim jarayonini va faoliyatni tashkil etishga doir mahalliy hujjatlar |
| | | Kasbiy o'qitishni tashkil etish asoslari va usullari, amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari |
| | | Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha standart, namunaviy va ishchi o'quv dasturlar talablari, kasbiy tayyorgarlikka taalluqli darsliklar va qo'llanmalar |
| | | Mehnatni tashkil etish xususiyatlari, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, ishlab chiqarish jihozlari va ulardan foydalanish qoidalari, kasbga oid normativ-huquqiy hujjatlar, texnologik operatsiyalarni bajarish uchun vaqt me'yorlari |
| | | Mashg'ulotlarda ta'lim jarayonini tashkil etish, nazorat qilish, motivatsiyani rivojlantirish bo'yicha pedagogik, psixologik va metodik asoslar |
| | | Psixologik-pedagogik asoslari hamda o'qitishni texnik vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi |
| | | Amaliy mashg'ulotlar jarayonida faoliyatni tashkil etish va ta'lim oluvchilarni kasbga moslashish va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan muloqotlar olib-borish samarali usullari |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | | O‘quv va ishlab chiqarish amaliyotida ta’lim oluvchilarni faoliyatini tashkillashtirishda mehnat muhofazasi talablari |
| | A1.02.6 - Kasbiy ta’lim va kasbga o‘qitish dasturlarining o‘zlashtirilishini monitoringini olib borish, pedagogik nazorat qilish va baholash | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. O‘quv va ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida ta’lim oluvchilarni motivatsiyasi va tayyorgarlik dinamikasini nazorat qilish hamda o‘qitish natijalarini baholash |
| | | 2. Topshiriqlar ishlab chiqish, Davlat attestatsiya komissiyalari ishlarida ishtirok etish, kasbiy tanlovlarda ishtirok etish uchun ta’lim oluvchilarni tayyorlash |
| | | 3. Hamkasblarining o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishini tahlil qilish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Kompetensiyani baholashni pedagogik asoslangan shakl, metod va usullarini qo‘llay olish |
| | | Baholash materiallari va instrumentlarini ishlab chiqish |
| | | Topshiriqlarni murakkablik darajasidan kelib chiqib taqsimlash |
| | | Ish beruvchi tashkilot bazasida attestatsiya o‘tkazilganda tashkilotning vakillari hamda boshqa ish beruvchi tashkilotlar vaqillari bilan hamkorlik qilish va baholash tartibiga rioya qilish |
| | | Imtihonlarni belgilangan texnika xavfsizligi qoidalariga amalga qilgan holda ta’lim oluvchilar sog‘ligiga ziyon yetkazmasdan o‘tkazish |
| | | O‘qitish natijalarini monitoring qilish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va yuqori turgan tashkilotlar me’yoriy hujjatlarida belgilangan oraliq va yakuniy nazorat (attestatsiya)ni o‘tkazish tartiblari |
| | | Kasb, malakani o‘zlashtirilishini nazorat qilish va baholashning zamonaviy qarashlari va metodlari |
| | | Baholash vositalarini ishlab chiqish va qo‘llash, kasb, malakani o‘zlashtirilishini nazorat qilish va baholash natijalarini talqin qilish metodikasi |
| | | Pedagogik axloq me’yorlari, ta’lim oluvchilarni nazorat va baholash ishlarini olib borishda pedagogik qo‘llab-quvvatlash usullari |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Kasbiy ta’limda amaliy tayyorgarlikni hamda ishchi, xizmatchi malakasini o‘zlashtirganligini ta’minlaydigan o‘quv fani, modul, kurs, amaliy mashg‘ulotlar, namunaviy va ishchi dasturlarini ishlab chiqish va yangilash |
| | | 2. O‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari (amaliy ta’lim) dasturlarini dasturiy-metodik jihatdan ta’minlash va yangilash |
| | | 3. Dars va o‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarini rejalashtirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish |
| | | 4. O‘quv ishlab chiqarish jarayonini ta’minlovchi hujjatlarni yuritish |
| | | 5. Ishchi guruhlar tarkibida namunaviy o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish |
| | | 6. Ustoz-shogird, mahorat maktablari faoliyatida ishtirok etish |
| | | 7. Seminar, trening va malaka oshirish kurslarida ishtirok etish, o‘z tajribasini ommalashtirish |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Aniq va ishonchli ma’lumotlarni tanlab olish |
| | A1.03.6 - O‘quv-ishlab chiqarish jarayonini o‘quv-me’yoriy va metodik jihatdan ta’minlash | O‘quv-metodik qo‘llanmalar mazmuni va sifatini baholash |
| | | O‘quv-metodik mahsulotlar sifatini oshirishni ta’minlash |
| | | Amaliy mashg‘ulotlarning ishchi o‘quv dasturlari, dars rejalari, amaliy mashg‘ulotlar texnologik xaritalarini ishlab chiqish |
| | | O‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalar, elektron ta’lim resurslari, baholash vositalari va boshqa metodik mahsulotlarni ishlab chiqish |
| | | O‘quv, rejalashtirish hujjatlari, o‘quv ustaxona (amaliy mashg‘ulot o‘tish joylari) hujjatlari hamda ta’lim oluvchilarni mehnat muhofazasi bo‘yicha yo‘riqnomalar jurnalini yuritish |
| | | Ta’lim oluvchilar tayyorlagan mahsulotlarni, ishlatilgan xomashyo va resurslarni hisobotini yuritish |
| | | O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq shaxsiy ma’lumotlar bilan ishlash, turli xil toifadagi fuqarolarni va mansabdor shaxslarni o‘quv hujjatlar va shaxsiy ma’lumotlardan foydalanish uchun talablari qonuniyligini aniqlash |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Darsliklar, o‘quv va o‘quv metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish asoslari |
| | | Ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | | Darsliklar, o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni sifatini baholash mezonlari |
| | | Ta’lim dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar mazmuni |
| | | Muayyan kasbiy faoliyatning kasbiy standartlari, malakaviy va dasturiy-metodikaviy ta’minlashga bo‘lgan talablari |
| | | Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha zamonaviy darsliklar, o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalar, elektron o‘quv resurslari va boshqa metodik materiallarga bo‘lgan talablari |
| | | O‘quv jarayonini tashkil qilish, dasturiy-metodik ta’minotni ishlab chiqish, o‘quv va boshqa hujjatlarni tartibga solish va ulardan foydalanish qoidalarini belgilovchi me’yoriy hujjatlar |
| | | Dasturiy-metodik ta’minotni ishlab chiqish uchun zarur bo‘ladigan axborotni izlashning asosiy manbalari va usullari |
| A2.6 - O‘quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, ta’limni chuqurlashtirish va kengaytirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratish | A2.01.6 - Guruh faoliyatini rejalashtirishda o‘quvchilar, ularning ota-onalari (qonuniy vakillari), ta’lim muassasasi xodimlari ishtirokini ta’minlash, shu jumladan, guruh talabalarini turli amaliyotlarga va kasbiy faoliyatga jalb etish | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Guruh faoliyati bo‘yicha yillik va oylik reja loyihalarini ishlab chiqish hamda muhokamaga qo‘yish |
| | | 2. O‘quvchilar, ota-onalar (qonuniy vakillar) va ta’lim muassasasi xodimlari ishtirokida yig‘ilishlar tashkil etish |
| | | 3. Guruh talabalarini ishlab chiqarish amaliyoti, o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar va kasbiy faoliyat turlariga yo‘naltirish |
| | | 4. Korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliyot o‘tash jarayonini muvofiqlashtirish |
| | | 5. Guruh faoliyati natijalarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish |
| | | 6. Ota-onalar bilan doimiy aloqani yo‘lga qo‘yish va axborot almashinuvi olib borish |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Rejalashtirish va tashkilotchilik usullaridan samarali foydalanish |
| | | Jamoa bilan ishlash va hamkorlikni samarali tashkil etish |
| | | O‘quvchilarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirish va rag‘batlantirish |
| | | Ota-onalar bilan muloqot olib borish va kelishuvga erishish |
| | | Amaliyot jarayonini nazorat qilish va muammolarni o‘z vaqtida hal etish |
| | | Tahliliy fikrlash va qaror qabul qilish |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | | **Bilimlar:** |
| | | Ta’lim jarayonini rejalashtirishning asosiy tamoyillari |
| | | O‘quvchilar bilan tarbiyaviy va kasbiy yo‘naltiruvchi ishlarni olib borish usullari |
| | | Ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish tartibi va normativ hujjatlar |
| | | Ota-onalar bilan hamkorlikning pedagogik va huquqiy asoslari |
| | | Mehnat bozori va kasbiy faoliyat turlari haqida umumiy tushunchalar |
| | | Ta’lim muassasasining ichki me’yoriy hujjatlari va lavozim majburiyatlari |
| | A2.02.6 - Guruhning o‘ziga xos boshqaruv organlarini tashkiliy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Guruhning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini shakllantirish jarayonini tashkil etish |
| | | 2. Boshqaruv organlari faoliyati uchun tashkiliy va pedagogik sharoitlarni yaratish |
| | | 3. Guruh faollari bilan muntazam ish rejalari va yig‘ilishlarini o‘tkazish |
| | | 4. Boshqaruv organlari a’zolariga vazifalar taqsimoti va mas’uliyatni tushuntirish |
| | | 5. Guruh ichki tartib-qoidalariga rioya etilishini ta’minlashda faollar faoliyatini muvofiqlashtirish |
| | | 6. Faollar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishga ko‘maklashish |
| | | 7. Boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini tahlil qilish va baholash |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Tashkiliy-pedagogik faoliyatni rejalashtirish va boshqarish |
| | | O‘quvchilar o‘rtasida yetakchilik va mas’uliyatni shakllantirish |
| | | Jamoa bilan ishlash va o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantirish |
| | | Tarbiyaviy jarayonlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish |
| | | Muammoli vaziyatlarda pedagogik yechim topish |
| | | Tashabbuskorlikni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash |
| | | **Bilimlar:** |
| | | O‘quvchilar jamoasini boshqarish, o‘zini o‘zi boshqarish tizimlari va asoslari |
| | | Tashkiliy-pedagogik faoliyatning shakl va usullari |
| | | Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish metodikasi |
| | | Ta’lim muassasasining ichki tartib-qoidalari va me’yoriy hujjatlari |

LOYIHA

| | | |
|---|---|---|
| | | O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari |
| | | Pedagogik muloqot va yetakchilik nazariyasi |
| | A2.03.6 - O‘quv hujjatlari asosida hisobotlar, ma’lumotnomalar va boshqa ma’lumot materiallarini belgilangan shaklda (jumladan qog‘oz va elektron ko‘rinishda) tuzish va so‘rov bo‘yicha vakolatli shaxslarga taqdim etish. | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. O‘quv hujjatlarini o‘rganish va tahlil qilish |
| | | 2. Belgilangan shakl va namunalar asosida hisobotlar hamda ma’lumotnomalarni tayyorlash |
| | | 3. Qog‘oz va elektron shaklda hujjatlarni rasmiylashtirish va tizimlashtirish |
| | | 4. Axborot materiallarini belgilangan muddatlarda tayyorlash va topshirish |
| | | 5. So‘rovlar asosida zarur ma’lumotlarni tanlash, aniqlashtirish va rasmiylashtirish |
| | | 6. Tayyorlangan hujjatlarni vakolatli shaxslarga taqdim etish va ro‘yxatdan o‘tkazish |
| | | 7. Hujjatlarning saqlanishi va maxfiyligini ta’minlash |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Rasmiy hujjatlarni belgilangan talablar asosida tuzish |
| | | Qog‘oz va elektron hujjatlar bilan ishlash ko‘nikmasi |
| | | Axborotni tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish |
| | | Elektron hujjat aylanishi tizimlaridan foydalanish |
| | | Belgilangan muddatlarga qat’iy rioya qilish |
| | | Mas’uliyat va aniqlik bilan ish yuritish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | O‘quv hujjatlari va hisobotlarni yuritish tartibi |
| | | Hujjatlarni rasmiylashtirishga oid me’yoriy-huquqiy talablar |
| | | Elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlari asoslari |
| | | Axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash talablari |
| | | Ta’lim muassasasining ichki me’yoriy hujjatlari |
| | | Ish yuritish va hujjatchilik asoslari |
| | **Mas’uliyat va mustaqillik:** | 1. Biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik |
| | | 2. O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasidagi mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish, shuningdek, biriktirilgan xodimlar mehnatini tekshirish va rivojlantirish |
| | | 3. Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilish |
| **Texnik va/yoki texnologik talab** | | Noutbuk yoki shaxsiy kompyuter;<br>Proyektor yoki interaktiv doska;<br>Internet; |

LOYIHA

| | |
|---|---|
| | Trenajyor va simulyatorlar;<br>Zamonaviy uskunalar, stanoklar, elektron boshqaruv tizimlari va mexanik qurilmalarni ishlatishni bilishi;<br>texnik hujjatlar (chizmalar, sxema va pasportlar) bilan ishlay olish;<br>elektr uskunalari va energiya ta’minoti tizimlarini tushunishi;<br>quvvat manbalari bilan xavfsiz ishlash qoidalarini bilishi;<br>mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari boʻyicha bilimlarga ega boʻlishi;<br>avariyaviy holatlarda toʻgʻri harakat qila olishi;<br>ishlab chiqarish tartibini aniq bajarish;<br>texnologik tartiblar va standartlarga rioya qilish;<br>ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish boʻyicha takliflar berish qobiliyati;<br>yangi texnologiyalarni oʻzlashtirish va qoʻllash;<br>talabalarni amaliyotga tayyorlash uchun texnologik jarayonlarni soddalashtirib tushuntira olish;<br>talabalarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish. |

LOYIHA

<table>
<tr><td>Kasbning nomi:</td><td colspan="2">Transport xizmatlari sohasida kasb ta’lim ustalari</td></tr>
<tr><td>Mashg‘ulot nomining kodi:</td><td colspan="2">23202</td></tr>
<tr><td>TMR bo‘yicha malaka darajasi:</td><td colspan="2">6</td></tr>
<tr><td>Malakani baholashga qo‘yilgan talablar:</td><td colspan="2">Tavsiya etiladi</td></tr>
<tr><td>Ish staji (amaliy tajriba)ga qo‘yilgan talablar:</td><td colspan="2">Dars beradigan o‘quv fani (amaliyot)lariga mos oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumoti yoki o‘rta kasbiy ta’lim darajasidagi ma’lumot, avtomobil haydashni o‘rgatuvchi-yo‘riqchi guvohnomasi, avtotransport vositalarini boshqarish bo‘yicha kamida 3 yil amaliy ish staji</td></tr>
